

**SALOMATLIK TUSHUNCHASI.ORGANIZM TURLI
SISTEMALARI KASALLIKLARI**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Salomatlik bu-inson tanasida kasallik yo'qligini emas,balki uning jismoniy sog'lomligi,ruhiy barqarorligi,ma'naviy hamda ijtimoiy jihatdan o'zini yaxshi his etish holatidir. Salomatlikning asosiy tarkibiy qismlari: Jismoniy salomatlik-tanadagi barcha a'zolar va tizimlarning normal faoliyat ko'rsatishi, organizmdagi kasalliklarga bardoshi, me'yordagi ovqatlanish, jismoniy faollik va gigiena talablariga amal qilish bilan belgilanadi. Ruhiy salomatlik-insonning o'zini ruhiy jihatdan barqaror his qilishi, stressni boshqara olish, emotsional muvozanat va sog'lom fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishni bildiradi. Ijtimoiy salomatlik-insonning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, boshqalar bilan sog'lom munosabat o'rnatish, normal hayot ritmida faoliyat yuritish olishi. Salomatlikka ta'sir etuvchi qiluvchi omillar: Irsiy omillar, ekologik sharoitlar, oziqlanish sifati, jismoniy faollik, hayot tarzi, tibbiy xizmat sifati.

Inson organizmi o'zaro uzviy bog'langan ko'plab tizimlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri hayot faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yurak-qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, asab, endokrin, mushak-skelet va boshqa tizimlar o'z vazifalarini me'yorida bajarganida organizmda barqarorlik va sog'lom hayot kechiradi. Ammo turli ichki va tashqi omillar ta'sirida ushbu tizimlarning faoliyati buzilishi,ularning kasallanishiga olib keladi. Shu bois organism tizimlari kasalliklareining sabablari,rivojlanish mexanizmlari va oldini olish choralarini bilish sog'liqni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Endokrin sistemasi kasalliklari. Qalqonsimon bezning tiroksin garmon yetishmaganda yosh bolalarning o'sishi, aqliy va jismoniy rivojlanishi sekinlashib, **kretinizm** xastaligi kelib chiqadi. Katta yoshdagi odamlarda bez faoliyati pasayib,

tiroksin kam ishlab chiqarilishining kamayishi **miksidema** paydo qiladi. Qizlar balog'atga yetish davrida qalqonsimon bez funksiyasi birmuncha kuchayib, **tireotoksikoz** xastaligining alomatlari: tez jahl chiqishi, uyqusizlik, ishtahaning pasayishi, terlash paydo bo'lishi mumkin. Qalqonoldi bezi funksiyasi pasayganda qonda kalsiy miqdori kamayib, nerv-muskul qo'zg'aluvchanligi ortadi, qovoqlar va lablar pirpirab, qo'llar qaltiraydi, ya'ni **tetaniya** sodir bo'ladi. Gipofiz bezining samototrop garmoni bo'y o'sishiga ta'sir qiladi, yosh bolalarda bu garmon ko'p ishlab chiqarila boshlansa bo'y o'sib **gigantism**, kamroq ishlab chiqarilsa **nanism** kelib chiqadi. Oshqozonosti bezidan chiqadigan insulin garmoni ko'payganida hujayralarda glukoz sarfi ortib, glikogen sintezi tezlashadi, buning natijasida qonda glukoz miqdori kamayib, qon bosimi pasayadi, insulin yetishmaganda qonda qand miqdori oshib **qandli diabet** kasalligi kelib chiqadi.

Qon aylanish sistemasi kasalliklari. Yurak-qon tomir kasalliklaridan **miokard infarkti**-qon aylanishining ishdan chiqish tufayli yurak muskullarining yemirilishi. **Gipertoniya**-arteriyalarda qon bosimining oshib ketishi, **insult**-bosh miyaga qon quyilishi, **ateroskleroz**-qon tomir devorining qalinlashib, uning nayining torayib qolishi ko'proq uchraydi. Kasalliklarning kelib chiqishi kam harakatlanish, ortiqcha semirish, chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilsih va psixik zo'riqish bilan bog'liq.

Nafas olish sistemasi kasalliklari. **Rinit**-burun shilliq pardasi yallig'lanishi keng tarqalgan. Bemorning burnidan suv oqadi, burni orqali nafas olishi qiyinlashib, tez-tez aksa uradi. **Gripp** kasalligini viruslar paydo qiladi. Gripp virusi bemorning burnidan oqib turadigan shilliq moddada, yo'talganda ajralib chiqadigan balg'ami va tupigida bo'ladi. Bemor aksirganda va yo'talganda ko'zga ko'rinmas millionlab zarralari havoga tarqaladi. Infeksiya havo orqali sog'lom odam nafas yo'llariga tushganida gripp yuqishi mumkin. Nafas olish sistemasi kasalliklariga yana **o'pka sili, angina, allergiya** kabi kasalliklar kiradi.

Ovqat hazm qilish sistemasi kasalliklari. Spirtli ichimliklarni surunkali iste'mol qilish oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi-**gastrit** ni paydo qiladi. Alkogol ta'sirida jigar hujayralari yallig'lanib, surunkali jigar kasalligi-**gepatit**

kelib chiqadi. Gepatit alkogol ta'sirida **jigar sirrozi** kelib chiqadi. Bundan tashqari, spirtli ichimliklar fermentative Sistema ishini buzib, organizmda vitamin taqchiligiga sabab bo'lishi oshqozon osti bezining yallig'lanishi **pankreatit** kelib chiqishi mumkin.

Nerv sistemasi kasalliklari. Sezuvchi nerv tolalarining zararlanishi **nevralgiya** deyiladi. Harakatlanuvchi nervlarning shamollashi **nevrit** ga olib keladi. Umurtqa pog'onasi bel va dumg'aza qismidan chiqadigan nervlarning siqilib qolishi sababli **radikulit** kelib chiqadi. Orqa miya harakatlantiruvchi neyronlarini viruslar zararlashidan **polimiyelit** kelib chiqadi.

Sezgi organ sistemalari kasalliklari. Ko'z kasalliklari. Ko'zda pigmentning bo'lmasligi natijasida ko'zning ko'rish qobiliyati ancha pasaydi va **albinism** kasalligi kelib chiqadi. Ko'z kasalliklari qatoriga ko'zning qorong'ida ko'rish qobiliyatining buzilishi-**shabko'rlik** ham kiradi. Ovqat tarkibida A vitaminining yetishmasligi **glaucoma**, ko'z gavharining xiralashuvi **katarakta** siga sabab bo'ladi. Shamolda, iflos qo'l, kir sochiq yoki boshqa sabablar tufayli ko'zga mikroblar tushib qolganda yallig'lanish **konyuktiv** kelib chiqadi.

Inson organizmi murakkab tuzilgan bo'lib, uning har bir tizimi sog'lom bo'lsa, butun tananing faoliyati barqaror bo'ladi. Har qanday tizimdagi buzilish esa umumiy salomatlikka ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kasalliklarning erta belgilarini bilish, ularning oldini olish va sog'lom turmush tarziga amal qilish organizmning barcha tizimlarini himoya qilishda eng muhim omillardir. Sog'lom odatlar muntazam tibbiy ko'rik esa kasalliklarning ko'pini vaqtida aniqlashga va oldini olishga yordam beradi.